

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA HAKAMLIK SUDINING TARKIBIDAGI
MUAMMOLAR VA SUDYALARINING BILIM VA MALAKALARINI OSHIRISH
BO‘YICHA CHORA-TADBIRLAR.**

Mamadaliyev Akrombek Ikrom o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura va sirtqi ta‘lim fakulteti

Mediatsiya va nizolarni muqobil hal etish faoliyati talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14105717>

Annotatsiya. Yurtimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar zamonida har bir sohani tubdan rivojlantirish va takomillashtirish, aholi manfaatlari va qadrini yuksak darajaga ko‘taradigan tizimni shakllantirish yuzasidan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu qatorda nizolarni muqobil hal etish yo‘lida hakamlik sudlari, mediatsiya va arbitraj sudlarining huquqiy mavqeyi tobora kengaymoqda. Xususan, hakamlik sudlaridagi mavjud muammolarni bartaraf etish hamda ularning faoliyat olib borish mexanizmini jahon standartlariga mos ravishda tartibga solish juda ham muhim. Chunki hakamlik jarayonlari fuqarolik va iqtisodiy faoliyatdagi mavjud nizo va boshqa shu kabi muammolarni tez hamda samarali hal qilish uchun yaratilgan huquqiy institut hisoblanadi. Binobarin, hozirgi kunda mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish zaruratida hakamlik sudi institutini keng rivojlantirish nihoyatda muhimdir. Mazkur ilmiy maqola O‘zbekiston Respublikasida hakamlik sudining tarkibini shakllantirishdagi mavjud muammolar hamda ularni to‘g‘ri shakllantirish, hakamlik sudi sudyalarining sohaga oid bilim va malakalarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi zarurligi hamda qonunchilikdagi bunga mavjud zarurlarni bartaraf etish yuzasidan taklif va qo‘shimchalar berishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda hakamlik sudlarining funksiyalari, ularni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan metod va usullar hamda bu borada davlat tomonidan ko‘rilayotgan chora-tadbirlar haqida batafsil tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: hakamlik sudi, hakamlik sudi tarkibi, nizolarni hal etish, vakolatli sud, bilim va malakalar, qonun, kodeks.

**PROBLEMS IN THE STRUCTURE OF THE ARBITRATION COURT IN THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND MEASURES TO IMPROVE THE KNOWLEDGE
AND SKILLS OF ITS JUDGES.**

Abstract. In the era of large-scale reforms being carried out in our country, measures are being taken to radically develop and improve each sphere, to form a system that raises the interests and values of the population to a high level. At the same time, the legal position of arbitration courts, mediation and arbitration courts in the field of alternative dispute resolution is increasingly expanding. In particular, it is very important to eliminate existing problems in

arbitration courts and regulate the mechanism of their activities in accordance with world standards. Because arbitration proceedings are a legal institution created to quickly and effectively resolve existing disputes and other similar problems in civil and economic activities. Therefore, today, in our country, in the context of further deepening democratic reforms and the formation of civil society, it is extremely important to widely develop the institution of arbitration courts. This scientific article is devoted to the existing problems in the formation of the composition of the arbitration court in the Republic of Uzbekistan and the need to implement measures to improve their correct formation, the knowledge and skills of arbitration court judges in the field, and to provide proposals and additions to eliminate the existing needs in the legislation. The study provides a detailed analysis of the functions of arbitration courts, the methods and techniques necessary for their development, and the measures taken by the state in this regard.

Keywords: arbitration court, composition of the arbitration court, dispute resolution, competent court, knowledge and skills, law, code.

ПРОБЛЕМЫ СТРУКТУРЫ АРБИТРАЖНОГО СУДА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН И МЕРЫ ПО ПОВЫШЕНИЮ ЗНАНИЙ И КВАЛИФИКАЦИИ СУДЕЙ

Аннотация. В ходе проводимых в стране широкомасштабных реформ принимаются меры по коренному развитию и совершенствованию каждой отрасли, формированию системы, повышающей интерес и ценность населения. В том числе расширяется правовая позиция арбитражных, посреднических и арбитражных судов на пути альтернативного разрешения споров. В частности, очень важно устранить существующие проблемы в арбитражных судах и упорядочить механизм их деятельности в соответствии с мировыми стандартами. Поскольку арбитражные процессы являются правовым институтом, созданным для быстрого и эффективного разрешения существующих споров и других подобных проблем в гражданской и экономической деятельности. Следовательно, в настоящее время чрезвычайно важно широкое развитие института арбитража в условиях необходимости дальнейшего углубления демократических реформ и формирования гражданского общества в нашей стране.

Данная научная статья посвящена предложениям и дополнениям по существующим проблемам в структуре Арбитражного суда Республики Узбекистан и их правильному формированию, необходимости реализации мер по повышению отраслевых знаний и квалификации судей Арбитражного суда, а также устранению существующей необходимости в законодательстве. В исследовании подробно анализируются функции

арбитражных судов, методы и приемы, необходимые для их развития, а также меры, принимаемые государством в этом отношении.

Ключевые слова: *арбитраж, структура Арбитражного суда, разрешение споров, компетентный суд, знания и квалификация, закон, кодекс.*

Kirish

Demokratik tamoyillar rivojlangan mamlakatlarda vujudga kelgan nizolarni muqobil tartibda hal etish instituti va uni belgilash mezonlarini ishlab chiqish juda katta ahamiyat kasb etadi. Bu orqali esa nizolarning aynan qaysi sudlar tomonidan ko'rib chiqilishi va nizolarni sudga qadar hal qilish vakolati berilgan organlarning nizoni hal etish yuzasidan olib boradigan usullari va tartibini o'rganish muhim sanaladi. Chunki hozirgi kunda fuqarolik-huquqiy munosabatlar ishtirokchilari o'rtasida yuzaga keladigan mojaroli vaziyatlarni hal etish ko'pincha tez va malakali yechim talab qiladigan va nizoni hal etadigan huquqiy insitutga ehtiyoj sezmoqda. Bu turdagi vazifani mustaqil hakamlik instituti bajaradi. Qonunchilikka asosan, hakamlik sudlari fuqarolik va iqtisodiy nizolarni hal qiladigan va davlat sud tizimiga kirmaydigan maxsus nodavlat organidir.

Ushbu huquqiy institut to'laqonli shakllanmaganligi, ishlash mexanizmlari tartibga solinmaganligi va qonunchilikdagi mavjud kamchiliklar to'la bartaraf etilmaganligi sababli ayrim muammolar ko'zga tashlanmoqda. Umuman olganda, hakamlik sudlari tarkibini shakllantirishdagi muammolar hamda sudyalar tarkibini shakllanishidagi muammolar ta'siri ortidan sudyalarning bilim va ko'nikmalari borasida ham muammolar doimiy ravishda uchraydi va bu nazorat ostiga olinmagan. Shu sababli hakamlik sudlari faoliyatining samaradorligi sudyalarning bilim va malakasiga ham bog'liqdir, shuning uchun ularning bilimlarini muntazam oshirish muhim vazifa hisoblanadi. Shuningdek, S. Maripovanning qayd etishicha, nizolarni muqobil (sudgacha) hal qilish usuli yordamida nizolashuvchi taraflarga xolis, betaraf mediator o'zaro maqbul kelishuvga erishishda yordam beradi, lekin u nizo bo'yicha qaror qabul qilishga va taraflarning hech biriga maslahat berishga haqli emas [12, 38b.]. Olimaning fikrlari juda o'rinli ekanligidan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, hakamlik sudlari tomonidan hal qiluv qarori qabul qilinishi mediatsiya natijasida tuzilgan mediatsiya kelishuvidan tubdan farq qiladi. Demak, hakamlik sudining hal qiluv qarorini ijroga qaratish masalasi vakolatli sudlar tomonidan amalga oshirilishi esa bu ma'lum bir yurisdiksiyaga ega ekanligidan dalolat beradi¹.

¹ DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.6./RHFk9005> UDC: 331.109.648(045)(575.1) HAKAMLIK SUDINING HAL QILUV QARORI TUSHUNCHASI VA HUQUQIY AHAMIYATI. Xakberdiyev Abdumurad Abdusaidovich, Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Bundan kelib chiqadiki, nizolarni hakamlilik sudi tartibida hal etishda sudyaning hal qiluv qarori katta ahamiyatga egaligi va bu qaror vakolatli sud tomonidan ijroga qaratilishi faktorining mavjudligi, hakamlilik sudi sudyalarning tarkibini to'g'ri shakllantirish va bilim va ko'nikmalariga muhim e'tibor qaratilishi lozimligidan dalolat beradi.

Maqolada, hakamlilik sudlarining tashkil etilish tartibi, hozirgi holati, va kelgusidagi rivojlantirish yo'nalishlari tadqiq qilinadi.

Asosiy qism

Maqolani yoritish davomida bevosita turli xil material va metodlarga yuzlanamiz. Xususan hakamlilik sudlari tashkil etilganidan so'ng eng muhim vazifa bu uning tarkibini shakllantirish hisoblanadi. Undagi mavjud muammolarni tahlil qilish uchun huquqiy materiallardan, xususan, "Hakamlilik sudlari to'g'risidagi" qonun, fuqarolik kodeksi, fuqarolik protsessual kodeksi, iqtisodiy protsessual kodeks, huquqiy adabiyotlar hamda tegishli normativ-huquqiy hujjatlar o'rganib chiqildi. Metod sifatida esa huquqiy tahlil, statistik ma'lumotlarni qayta ishlash va taqqoslash usullari qo'llanildi. Mazkur tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanamiz:

1. *Huquqiy hujjatlar tahlili: O'zbekiston Respublikasining qonunlari, Prezident farmonlari va xalqaro huquqiy normalar, sohaga oid qonun hujjatlari va huquqiy adabiyotlar asosida huquqiy tahlil o'tkazildi.*

2. *Statistik ma'lumotlar: O'zbekiston Adliya vazirligi va boshqa davlat idoralarining hakamlilik sudlariga oid statistik hisobotlari o'rganildi. Bu ma'lumotlar sudyalarning malakasini oshirish va sud ishlarining samaradorligini baholash uchun foydalanildi.*

3. *So'rovnomalar va intervyular: Hakamlilik sudyalari va fuqarolik ishlari bo'yicha yuristlar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazildi. Bu orqali sudyalarning bilimlarini oshirish uchun mavjud ehtiyojlar, malaka oshirish dasturlarining yetarli darajada emasligi aniqlandi.*

Muammolarni oldini olishda aniq bir metodlardan foydalangan holda ish olib borish samarasi yuqori bo'ladi. Shu sababli dastlab amaldagi qonunchilikka to'xtaladigan bo'lsak, shu jumladan "Hakamlilik sudlari to'g'risida"gi qonunga binoan, Qonunning 14-moddasida hakamlilik sudyasi bo'lish uchun qo'yiladigan talablar aniq belgilangan bo'lib unga ko'ra, yigirma besh yoshdan kichik bo'lmagan, nizoning xolis hal qilinishini ta'minlashga qodir bo'lgan, nizoning pirovard natijasidan bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo'lmagan, hakamlilik bitimi taraflaridan mustaqil bo'lgan va hakamlilik sudyasi majburiyatlarini bajarishga rozilik bergan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hakamlilik sudyasi etib saylanishi (tayinlanishi) mumkin.

Nizoni yakka tartibda hal qiluvchi Hakamlilik sudyasiga qo'yiladigan talablar: yigirma besh yoshdan kichik bo'lmashligi; nizoning xolis hal qilinishini ta'minlashga qodir bo'lishi; nizoning pirovard natijasidan bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo'lmashligi; hakamlilik bitimi taraflaridan

mustaqil bo'lishi; hakamlilik sudyasi majburiyatlarini bajarishga rozilik bergan bo'lishi; O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lishi. hakamlilik sudyasi oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Nizo hay'atda hal qilinayotganda, hakamlilik sudi tarkibi raisi oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lishi lozim.

Qonunda belgilab qo'yilgan ushbu bandlar hakamlilik sudi sudyasi bo'lishni istagan har bir talabgor uchun qat'iidir. Ammo talablar sudya bo'lish uchun to'g'ri qo'yilganmi degan savol tug'iladi. Afsuski yo'q. O'zbekistonda 281 ta hakamlilik sudi ro'yxatdan o'tgan bo'lsa ularda 1500 dan ortiq hakamlilik sudyasi faoliyat olib bormoqda. Mazkur 1500 ta hakamlilik sudyalarning deyarli asosiy qismi turli xil sohada asosiy ish faoliyati mavjud bo'lgan shaxslar hakamlilik sudi haqida tushunchalarga ega emas. Qonunning 14-moddasida nizoni yakka tartibda hal qiluvchi hakamlilik sudyasi oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lishi kerakligi belgilangan. Bundan kelib chiqadiki, hay'atda ko'riladigan ishlarda hakamlilik muhokamasini o'tkazishda raislik qiluvchi hakamlilik sudyasidan tashqari boshqa sudyalari hakamlilik sudining asl mazmun mohiyatidan xabardor bo'lmagan shaxslar ishtirok etib kelmoqda.

Biroq, O'zbekiston Hakamlilik sudlari assosatsiyasida Hakamlilik sudyalari o'qitish akademiyasi mavjud bo'lsada, assosatsiya tarkibidagi hakamlilik sudlarida hakamlilik faoliyati bilan shug'ullanishi sharti bilan hakamlilik sudyasi kursida o'qitib kelmoqda. Bundan shuni tushinish mumkinki, assosatsiya faqat o'zi uchun sudyalari o'qitishni va o'zining faoliyatini rivojlantirishini maqsad qilib qo'ygan. Shu bilan birga, assosatsiya akademiyasida o'qitish jarayonida holislik masalasi ochiq qolgan bo'lib, unda o'zlariga moslashtirgan holda o'quv kurslari tashkil qilingan va hakamlilik sudyalari tomonidan dars mazg'uloti o'tkazilib keladi. Bu albatta biron bir o'quv darsturiga mos kelmaydi.

"Hakamlilik sudlari to'g'risida"gi Qonunning 15-moddasiga muvofiq, taraflar faqatgina sudni tashkil etgan yuridik shaxs tomonidan tasdiqlangan hakamlilik sudyalari ro'yxatidagi hakamlilik sudyalari tanlashi mumkinligi belgilangan. Shuning uchun hakamlilik sudini tashkil etuvchi yuridik shaxs hakamlilik sudyalari ro'yxatini tuzishda unga turli mutaxassislarni kiritishi maqsadga muvofiq². Ammo yuridik shaxsga berilgan ushbu vakolatning aniq belgilanmaganligi biroz e'tirozga sabab bo'ladi. Chunki yuqorida ta'kidlaganimizdek, hakamlilik sudi sudyasi nizoni yakka tartibda ko'rishda oliy yuridik malakaga ega bo'lishi hamda ishni hay'at tartibida ko'rganida sud raisi oliy yuridik malakaga ega bo'lishi belgilangan.

² UDK: 347.746.42 (075) (575.1) Nizolarni muqobil hal etish usullari / Darslik. Hammualliflikda. – Toshkent: TDYU, 2024. – 338 bet. Mualliflar: M.M. Mamasiddiqov, yu.f.d. (DSc), professor – I, II, III, IV boblar; A.A. Xakberdiyev, yu.f.d (DSc), dotsent – V, VI, VII, VIII, IX boblar, glossariy, testlar

Bu esa ishni hay'at tartibida ko'rganida faqatgina sud raisi oliy yuridik malakaga ega bo'lib, qolganlari huquq sohasida hattoki tushunchaga ega bo'lmagan, boshqa soha vakillarining sudyalik lavozimiga tayinlanishiga olib kelmoqda. Buning oqibatida esa hakamlik sudlari tomonidan noqonuniy hal qiluv qarorlari chiqarilishiga olib kelmoqda hamda bu borqali fuqarolarning hakamlik sudlariga bo'lgan ishonchi tobora pasayib bormoqda. Shu sababli hakamlik sudlarining tarkibini shakllantirishda dastlab amaldagi qonunga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish, hakamlik sudyalariga qo'yiladigan talablarni qat'iy belgilash hamda huquqiy munosabatlardan kelib chiquvchi nizolarni hal etish masalasini huquq sohasiga daxldor bo'lgan vakolatli shaxslarga ishonib topshirish lozim deb hisoblayman.

Ikkinchidan, hakamlik sudi sudyalarining bilim va malakalarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar tizimini izchil ravishda yo'lga qo'yish va mexanizmini ishlab chiqish lozim. Shu sababdan ham hakamlik sudyasi faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan hakamlik sudyalarini tayyorlash dasturi bo'yicha maxsus o'quv kursidan o'tgan, shuningdek hakamlik sudyalar reestriga kiritilgan shaxs amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Bu yo'l orqali, hakamlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar malakali yurist, olim va amaliyotchilar tomonidan xolislik tartibda hakamlik faoliyati bilan shug'ullanishga tayyor bo'lgan kadrlari yetishtirib chiqadi. Shuningdek, sertifikatga ega bo'lgan va hakamlik sudyalar reestriga kiritilgan shaxs O'zbekistonda mavjud bo'lgan har qanday hakamlik sudida faoliyat yuritishi ta'minlanadi. Bu esa ma'lum bir hakamlik sudining o'z manfaati uchun kadr yetkazib berish emas aksincha O'zbekistondagi barcha hakamlik sudlariga kadr yetkazish va qonunlarni to'g'ri talqin qilishiga olib keladi. Bunday tartib, "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonunning 12-moddasi mediatorga doir talablarida "professional asosdagi mediator faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan mediatorlarni tayyorlash dasturi bo'yicha maxsus o'quv kursidan o'tgan, shuningdek Professional mediatorlar reestriga kiritilgan shaxs amalga oshirishi mumkinligi belgilab qo'yilgan. Professional mediatorlarni tayyorlash o'quv kursi singari Adliya vazirligi tomonidan hakamlik sudi sudyalarini o'qitish tizimi va tartibi joriy qilinishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu orqali mavjud hakamlik sudi sudyalarini oliy attestatsiyadan o'tkazish orqali ularning bilim va malakalarini qayta baholash hamda sudyalik lavozimiga noloyiqlarini chetlashtirish hamda sudyalik lavozimida qolish istagini bildirgan nomzodlarni esa o'quv kurslariga jalb etish orqali ularning huquqiy bilim va ko'nikmalarini oshirish lozim. Shuningdek, hakamlik sudi sudyalarining bilim va malakalarini oshirish yo'lida quyidagi choralarni ko'rish ham o'rinli:

1. *Sudyalarning xalqaro tajriba almashinuvini rivojlantirish: Har yili hakamlik sudyalari xorijiy davlatlarning malakali sudyalari bilan tajriba almashish, treninglarda ishtirok etish uchun*

yuborish. Shu orqali ular xalqaro nizolarni hal qilishdagi ilg'or tajribalarni o'rganish imkoniga ega bo'lishadi.

2. *Trening dasturlari: Davlat tomonidan tashkil etilgan maxsus o'quv markazlari va oliy ta'lim muassasalari tomonidan sudyalarga mediatsiya va nizolarni hal qilish strategiyalari bo'yicha muntazam ravishda malaka oshirish kurslari tashkil etish. Bu kurslar sudyalarning malakasini zamonaviy tendensiyalar va xalqaro tajribaga moslashtirishga xizmat qiladi.*

Xulosa

Nazariy va ilmiy tahlillardan kelib chiqqan holda, amaldagi qonunga o'zgartirish kiritish bo'yicha quyidagi takliflarni berib o'tishni asosli deb bildim:

1. "Hakamlik sudlari to'g'risidagi" qonunning 3-moddasi ya'ni asosiy tushunchalarning qatoriga "Elektron hakamlik bitimi" tushunchasini kiritishni taklif qilaman. Ushbu tushunchani quyidagicha sharhlashni taklif etaman. **Elektron hakamlik bitimi** – internet tizimida elektron imzodan foydalangan holda shartnomaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqqan yoki kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizoni alohida shartnoma yoki shartnomaning tarkibiy qismi bo'lgan shartnoma sharti tarzida rasmiylashtirilgan nizoni hal etish bo'yicha kelishuvi.

2. Shu qatorda "Hakamlik sudlari to'g'risidagi" qonunning 3-moddasi ya'ni asosiy tushunchalar bandi qatoriga qo'shimcha tarzda "Onlayn hakamlik muhokamasi" tushunchasini qo'shish lozim va ushbu tushunchani quyidagicha sharhlash lozim: **Onlayn hakamlik muhokamasi** – hakamlik muhokamasida taraflarning jismoniy ishtirokisiz nizolarni ko'rib chiqadigan maxsus onlayn platforma asosida faoliyat ko'rsatadigan onlayn muomala va tranzaksiyalardan kelib chiqadigan nizolar va oflayn rejimda yuzaga keladigan nizolar uchun ham qo'llanishi mumkin bo'lgan onlayn hakamlik muhokamasi.

Ushbu ikkita tushunchani kiritishga asos sifatida "Onlayn hakamlik bitimi" va "onlayn hakamlik muhokamasi" tushunchalari O'zbekistonda faoliyat yuritib kelayotgan sudlarning reglamentlarida turlicha tahrirda o'zlariga moslashtirilgan holda kiritilishi natijasida faoliyat yuritib kelayotgan hakamlik sudyalarning o'rtasida turli xil tushunchalar mavjuddir. Shu boisdan ham "O'zbekistonda nizolarni hakamlik sudida hal etish jarayoni: nazariy va amaliy masalalar" mavzusida yuridik fanlar doktorlik (DSc) dissertatsiyasi doirasida o'rganilgan milliy va xorijiy olimlarning fikr mulohazalaridan kelib chiqqan holda ushbu tushunchalarni qonunchilikka qo'shishni taklif qilmoqdaman.

3. "Hakamlik sudlari to'g'risidagi" qonunning 6-moddasidagi doimiy faoliyat ko'rsatuvchi hakamlik sudi **yuridik shaxs** tomonidan tashkil etilishi bandini **nodavlat notijorat tashkilotlari** tomonidan tashkil etilishi bandiga o'zgartirishni taklif etaman.

4. Ya'ni hakamlik sudlari yuridik shaxslar tomonidan emas, aksincha nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan tashkil etilishi bandining qonunga o'zgartirish kiritgan holda joriy etilishini ilgari suraman.

5. "Hakamlik sudlari to'g'risidagi" qonunning 14-moddasiga ko'ra hakamlik sudi sudyalari qo'yiladigan talablar qatoriga **"Hakamlik sudyasi faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan hakamlik sudyalarini tayyorlash dasturi bo'yicha maxsus o'quv kursidan o'tgan, shuningdek hakamlik sudyalar reestriga kiritilgan shaxs amalga oshirishi mumkin"** degan bandni qo'shishni taklif qilaman. Bu taklif yuqorida keltirilgan asoslar bilan bevosita bog'liq hamda bu orqali hakamlik sudi sudyasi sohaga oid bilim va malakalarga ega kadr bo'lgan shaxslardan shakllanadi.

REFERENCES

1. Otaxonov F.X. Nizolarni muqobil hal qilish – Al'ternativnoye razresheniye sporov [Alternative dispute resolution]. Institute of Legislative Problems and Parliamentary Research under the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan. A collection of articles. 2022, p. 85.
2. Raxmonqulov X.R., Oqyulov O.O. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga sharh [Commentary on the Civil Code of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, VektorPress publ., 2010
3. Maripova S. Fuqarolik protsessida mediatsiyani qo'llash: qiyosiyhuquqiy tahlil [Application of mediation in civil proceedings: a comparative legal analysis]. PhD thesis. 2022, p. 38.
4. Nizolarni muqobil hal etish usullari / Darslik. Hammualliflikda. – Toshkent: TDYU, 2024. – 338 bet. Mualliflar: M.M. Mamasiddiqov, yu.f.d. (DSc), professor – I, II, III, IV boblar; A.A. Xakberdiyev, yu.f.d (DSc), dotsent – V, VI, VII, VIII, IX boblar, glossariy, testlar
5. Karl-Heinz Böckstiegel, Party Autonomy and Case Management Experiences and Suggestions of an Arbitrator, 11 schiedsvz 1, 2 (2013); Born, supra note 1
6. Dana H. Freyer, Practical Considerations in Drafting Dispute Resolution Provisions in International Commercial Contracts: A US Perspective, 15(4) J. INT'L ARB. 7, 20-23 (1998).